ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA’LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2025/ № 4,1

Termiz – 2025

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 19-oktyabrda 1122 raqami bilan ro‘yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko‘chirma va ma’lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko‘chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 28.10.2025
Qog‘oz bichimi: 70x85
Bosma tabog‘i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog‘ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko‘chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko‘chasi, 43.
Telefon: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisod fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI:

Bekpo‘lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o‘rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas’ul muharrir)
O‘ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O‘zbekiston)
Normat Yo‘ldoshev, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O‘zbekiston)
Asqar Eshmo‘minov, f.f.d., dotsent (O‘zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O‘zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.f.d., dotsent, (PhD) (O‘zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d. (PhD) (O‘zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To‘raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 28.10.2025
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать: Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт:
https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ, доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 28.10.2025
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43,
Termez city.
Phone: +998762231649

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV, doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, PhD (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, PhD (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, PhD (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, PhD (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, PhD (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, PhD (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, PhD (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, PhD (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, PhD (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, PhD (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, PhD (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, PhD (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, PhD (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, PhD (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

М У Н Д А Р И Ж А

TILSHUNOSLIK

DARVISHOV IBROHIM
Shevalardagi ayrim fonetik-fonologik belgilar
(Janubi-g‘arbiy Namangan qipchoq shevalari misolida) 7

ПАНЖИЕВА НАСИБА НАРМАХМАТОВНА
Теория концептуальной интеграции как
инструмент анализа стилистических приёмов 10

QO‘ZIYEV UMIDJON YANDASHALIYEVICH,
QO‘CHQORALIYEVA FOTIMA ZOKIRJON QIZI
Til kontakti va so‘z o‘zlashuvi muammolari 13

BEGMATOVA GULCHEHRA
«Qush» semantik komponentli idiomalar tadqiqiga doir kuzatishlar 16

QAZAQOVA NOZIMA ABDULBOQIYEVNA,
HAMRAYEVA YORQINOY NABIJANOVNA
Matn kommunikativ-pragmatik tahlilining asosiy tamoyillari 19

SHAMSUDINOVA IKHBOL
Yordamchi so‘zlar bazasini yaratishda reprezentativlikning ahamiyati 23

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Nutqda paremiyalarga xos milliy-madaniy konseptlarning ifodalanishi 27

ПАНЖИЕВ НОРМАХМАТ
Теоретические аспекты соотношения фрейма и концепта 31

KULTAYEVA FAZILAT
Hududiy ergonimlarning leksik-semantik tabiati 34

RAXMANOV BOTIR ABDURASULOVICH
Surxondaryo dialektal- etnografik leksikasida turli din va madaniyat belgilari 38

QODIROVA MUKADDAS TOG‘AYEVNA
Biznes diskursini sinergetik yondashuvda o‘rganish masalasi 41

RAHIMOVA ZEBINISO SHOMANSUR QIZI
Jargonlar haqida ba’zi mulohazalar 45

ЗАРИПОВА МАТЛУБА КУЛФИДИНОВНА
Тенденции негативной оценки в узбекских и русских пословицах 48

TURDALIYEV OLIMJON FAYZULLAJON O‘G‘LI
Ogahiy tarjimasidagi «Guliston» asarida qo‘shma fe’llarning berilishi 52

FARMONOVA UMIDA MAXSUTALIYEVNA
«Qisasi Rabg‘uziy» asarida qo‘llangan frazemalarning lingvostatistik
tahlili va keyingi davr tiliga munosabati 55

XASANOVA KAMILA BAXTIYOROVNA
Etnografik leksika va stereotiplar 58

DARVISHALIYEVA MAHLIYO RUSTAMALI QIZI
Mahmud Koshg‘ariy davri turkiy til va hozirgi Namangan
qipchoq shevalari fonetik xususiyatlari 61

МУНДАРИЖА

USMONALIYEV SHAHBOZ
O‘zbek tilshunosligida teonimlarning tadqiqi: muammolar va yechimlar 64

MAMIROVA XAYRINISO KOMILJON QIZI
Birinchi tilni o‘zlashtirishga oid nazariyalar 66

XOLMURODOVA SUMBULA NORMO‘MIN QIZI
Tog‘ay Murod asarlari asosida mualliflik korpusini yaratish asoslari va bosqichlari..... 70

IBRAGIMOV YULDASH MATKARIMOVICH
Qoraqalpog‘iston o‘zbek shevalari leksikasi tadqiqi masalasi 72

ADABIYOTSHUNOSLIK

РЎЗИҚУЛ МУСТАФОҚУЛОВ,
НАФОСАТ САЙФИДДИНОВА,
Икки дарё оқиб ўтди..... 75

SHUKUROV AHAD
Satrlarga sig‘mas so‘zlarim… 81

АМАНЖОЛОВА ДЖЕММА БОЛАТОВНА,
ШАЙМЕРДЕНОВА НУРСУЛУ ЖАМАЛБЕКОВНА
От устной традиции к цифровому архиву: сохранение и популяризация тюркского эпоса в XXI веке… 83

KARIMOV OBIDJON
Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini..... 87

КАДИРОВА ОЛИЯ ХАМЕДОВНА
Литература как пространство идентичности: диалог русской и узбекской малой прозы в постсоветскую эпоху… 90

ПУЛАТОВА САЙЁРА ЮЛДАШОВНА
Проблемы и достижения в переводе «Улисса» на узбекский язык…..... 93

UMAROV BOBOQAND IKROMOVICH,
Xurshid Davron she’riyatida ijtimoiy iztirob va ruhiy yolg‘izlik 97

KARJAVUV G‘OLIB AZAMAT O‘G‘LI
Muhammad Sharif Gulxaniyning masalchilikdagi badiiy mahorati…..... 100

UMARALIYAVA NAFISA QURBONALI QIZI
Zamon va shaxs ruhiyatining obrazlar orqali akslanishi…..... 104

BERDIBOYEV ULUG‘BEK SOATBOY O‘G‘LI
Tipologik talqin: adabiy tafakkur, poetik idrok, matn stlistikasi munosabati… 107

DUYSENBAYEV OLIMJON ISMAILOVICH
Romanda syujet va xarakter dinamikasi… 109

«qo‘l» olgan bo‘lsa erkaklar ham bajarishadi.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki, Surxon vohasi aholisining qadriyat va an’analari, rasm-rusumlari o‘ziga xosligi va xilma-xilligi, jozibadorligi bilan alohida ajralib turadi. Chunki, bularning barchasi aholining bugungi turmush tarzi va tarixiy etnomadaniyati bilan uyg‘unlashib ketgan.

Rezyume. Maqolada Surxondaryo dialektal-etnografik leksikasining tarixiy rivojlanishi, uning o‘ziga xos xususiyatlari, turlari, turli tillar, dinlar va madaniyatlarning mahalliy etnografizmlarda aks etishi haqida so‘z boradi.

Resume. The article discusses the historical development of the Surkhandarya dialectal-ethnographic lexicon, its specific features, types, and the reflection of different languages, religions, and cultures in local ethnographies.

Резюме. В статье рассматривается историческое развитие диалектно-этнографической лексики Сурхандарьинской области, ее специфические особенности, типы, отражение различных языков, религий и культур в местных этнографиях.

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta’lim. 2025; 10
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

BIZNES DISKURSINI SINERGETIK YONDASHUVDA O‘RGANISH MASALASI

Qodirova Mukaddas Tog‘ayevna,
Termiz davlat universiteti
ingliz tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti

Zamonaviy ilmiy paradigmaning o‘zgarishi tilning funksionallik xususiyatlarini ochib beruvchi yangi metodologik vositalar shakllanayotgan bir paytda, til tuzilishiga oid tadqiqotlarda avvalgi uslublar sekin-sekin universallikka aylanmoqda. Binobarin, diskurs makonida til birliklarining qanday faoliyat yuritishini o‘rganish tanqidiy qarashni ham, zamonaviy nazariy yo‘nalishlarning ilmiy salohiyatini chuqur tahlil etishni ham taqozo etadi. A.Nurmonov qayd etganidek, til tizimi bir tomondan o‘z-o‘zidan tashkillanish xususiyatiga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan subyekt aralashuvi bilan tartibga tushish (leksik muqobillarni tanlashda, adabiy til me’yorlarini belgilashda, til siyosati ta’sirida) belgisiga egadir[1]. Ana shunday ichki tizimlilik xususiyatiga ega obyektlarni hamda ularning umumiy jihatlarini o‘rganuvchi yo‘nalishga amaliy ehtiyoj tug‘ildi. Buning natijasida **sinergetika** maydonga keldi.

«*Sinergetika*» atamasi ko‘pincha nemis olimi, Shtutgart universiteti professori Georg Xaken va belgiyalik olim, Bryussel universiteti professori Nobel mukofoti sovrindori Ilya Prigojin bilan bog‘lanadi[2]. Dastlab u lazer nurlanishida kuzatiladigan o‘z-o‘zini tashkil etish jarayonini tavsiflash uchun joriy etilgan deb hisoblanadi. Biroq G.Xaken bu atamani ilk bor XX asrning boshlanishida ingliz fiziologi Ch.Sherrington tomonidan mushak tizimlari va ularning orqa miya orqali boshqarilishi bilan bog‘liq tadqiqotlarida

[1] Нурмонов А.Лингвосинергетикага кириш. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.5-6.
[2] Хакен Г. Синергетика. – М: Мир, 1980. – 406 с. file:///C:/Downloads/Khaken_G_-_Sinergetika_-1980.pdf.

qo‘llaganini ta’kidlaydi[1]. Vaqt o‘tishi bilan G.Xaken sinergetik yondashuvni fizikadan tashqariga olib chiqib, inson miyasi, xulq-atvori va ijtimoiy tizimlar kabi murakkab jarayonlarni o‘rganishga tatbiq etdi. Zero, turli tizimlar, tabiiy bo‘ladimi yoki ijtimoiy, fazoviy, vaqtinchalik va funksional tuzilmalarni o‘z-o‘zidan shakllantirish qobiliyatiga ega ekani ilmiy asoslandi. Amerika ilmiy maktabida esa mazkur konsepsiya ko‘pincha sinergetik geometriya ustida ishlagan R.Bakminster Fuller[2] nomi bilan bog‘lanadi.

Avvalo «*sinergetika*» atamasinining kelib chiqishini qisqacha bayon etish maqsadga muvofiq. *Sinergetika* (qadimgi yunoncha συν- – «*birgalikda*» ma’nosini bildiruvchi prefiks va ἔργον – «*faoliyat*») ochiq tizimlarda termodinamik muvozanatdan uzoqda yangi tuzilmalarning va modellarining paydo bo‘lishi hamda o‘z-o‘zini tashkil etish jarayonlarini o‘rganadigan fanlararo yo‘nalish[3] hisoblanadi.

D.M.Jilinning ta’rifiga ko‘ra, sinergiya ikki yoki undan ortiq omillarning o‘zaro hamkorligi tufayli paydo bo‘ladigan umumiy samaradorlik bo‘lib, u har bir komponentning yakka holdagi ta’siridan ancha ustun natija beradi[4]. Bunday jarayon «*emergentlik*», ya’ni kutilmagan yangi sifatlarga ega holatning shakllanishi bilan ifodalanadi. Falsafiy ensiklopedik lug‘atga ko‘ra, sinergiya – bu «*birgalikdagi harakat, turli potensiallar yoki energiya turlarining yagona jarayonda uyg‘unlashuvi sababli kelib chiquvchi o‘zaro ta’sir*»[5]dir.

Umuman olganda, sinergetika fanlararo yondashuv doirasida ikki yo‘nalishda ishlaydi: bir tomondan, turli tizimlar uchun umumiy qonuniyatlarni belgilaydi; boshqa tomondan esa, har bir tizimga xos – masalan, tartibsizlik, evolyutsiya, yashab qolish yoki yo‘qolish kabi – individual jarayonlarni aniqlash imkonini beradi.

Ayni paytda ilmiy tahlilning samarali yo‘llaridan biri – diskursga lingvosinergetik usulni tatbiq etishdir[6]. Boshqacha aytganda, ushbu yondashuv sinergetika tamoyillariga hamda lingvistik prinsiplar majmuiga tayangan holda diskursni murakkab ko‘rinishda tahlil qilish imkonini yaratadi. Binobarin, nazariy va amaliy asoslar birlashadi, avvalgi yondashuvlar esa lingvosinergetik konsepsiya doirasida uyg‘unlashtiriladi. Demakki, diskursni mikro darajada (birliklarning kombinatsiyasi, bog‘lanish turlari, koheziv vositalar) va makro darajada (janr, kommunikativ maqsad, ijtimoiy kontekst) bir vaqtda ko‘rish mumkin. Shunga ko‘ra, barqarorlik va o‘zgaruvchanlik o‘rtasidagi muvozanat, tizim dinamikasi va tartibga kelish mexanizmlari singari omillar bitta kuchli metodologik doirada izohlanadi, adresatga qaratilgan ma’no hosil qilish jarayonlari esa aniqroq bayon etiladi.

Diskursda lingvosinergetik yondashuvni amaliy qo‘llash quyidagi muhim vazifalarni bajarishni talab qiladi:

1) ilmiy yo‘nalishlarning asosiy xususiyatlarini umumlashtirish;

2) diskursiv makonning lingvosinergetik nuqtai nazardan funksiyalashishini tavsiflash;

3) diskursni tahlil qilishning an’anaviy usullarini lingvosinergetik model asosida uyg‘unlashtirish va ularning o‘zaro bog‘liqligini asoslab berish.

Sinergetika nuqtai nazaridan ijtimoiy tizimning har bir holati **bifurkatsiya**dir. Bifurkatsiya atamasi lotincha «*bifurcus*» (ikki tarmoqli) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, tizimning ikki yoki undan ortiq yo‘nalishlarga ajralishi nuqtasini anglatadi[7]. Uni fanga ilk bor rus matematigi Aleksandr Andronov 1920-yillarda dinamik sistemalar nazariyasiga kiritgan[8]. Ushbu yondashuv biznes diskursiga ham tegishli, negaki korporativ muloqot murakkab tizimlar qatoriga kiradi. Inqiroz, raqamli transformatsiya yoki strategiya almashinuvi diskursda burilish nuqtasini yuzaga keltiradi. Ilgari ustun bo‘lgan rasmiy uslub susayadi, natijaga yo‘naltirilgan va interfaol uslub kuchayadi. Vaholanki terminologiya qatlamida yangi iqtisodiy o‘zlashmlar kengayadi, masalan, o‘zbek biznes diskursida *outsourcing, benchmarking, cash flow, KPI, ROI* singari birliklar faol qo‘llanmoqda. Xuddi shunday janr tizimida ham siljish kuzatiladi, ya’ni uzun hisobotlar o‘rniga *qisqa taqdimot (pitch), matbuot xabari (press reliz), loyiha topshirig‘i (brif)* kabi ixcham shakllar egallamoqda. Bunday burilishlar natijasida, matnlar yangi me’yor atrofiga jamlanadi, ya’ni **attraktsiya** (lot. *attractio – o‘ziga tortmoq*[9]) bosqichiga o‘tadi.

Shunga ko‘ra kompaniya ichki hujjatlari, marketing matnlari va muzokara nutqi birbiriga moslashgan holda yagona uslubiy yo‘nalish hosil qiladi, auditoriya kutgan semantik va pragmatik mezonlar mustahkamlanadi. Biroq bu barqarorlik vaqtinchalik bo‘li-

[1] Хакен Г. Синергетика. – М: Мир, 1980. – С.6. file:///C:/Downloads/Khaken_G_-_Sinergetika_-1980.pdf.

[2] Fuller R.B., Applewhite E.J. Synergetics: Explorations in the Geometry of Thinking. – New York: Macmillan, 1975. – 876 p.

[3] Haken H. Synergetics. – Berlin; Heidelberg; New York: Springer-Verlag, 1982. – 355 p.

[4] Жилин Д.М. Теория систем: опыт построения курса. – М.: УРСС, 2004. – С. 183.

[5] Философский энциклопедический словарь. – https://rusphilosophy-enc.slovaronline.com/2104-синергия.

[6] Храмченко Д.С. Английский деловой дискурс в развитии: функционально-синергетические аспекты: монография. – Тула: Гриф и К, 2014.

[7] Prigogine I., Stengers I. Order Out of Chaos: Man’s New Dialogue with Nature. Bantam Books, 1984. – 349 p.

[8] “Bifurcation.” Merriam-Webster.com Dictionary, Merriam-Webster, https://www.merriamwebster.com/dictionary/bifurcation.

[9] Нурмонов А.Лингвосинергетикага кириш. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б.25.

shi mumkin, chunki bozor talablari o‘zgargani sari navbatdagi bifurkatsiya nuqtasi paydo bo‘ladi.

Fluktuatsiya (lot. «*fluctuatio*» – «*tebranish*», «*o‘zgarish*», «*beqarorlik*»[1]) sinergetikadagi asosiy tamoyillardan biri bo‘lib, tizimning barqaror holatdan chetlashishini anglatadi[2]. Biznes diskursida, A.Rahimov aytganidek, u bozor tebranishlari, tartib va qoidalar yangilanishi yoki inqiroz ta’sirida «me’yoriy andozadan og‘ish»[3] ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. U kommunikativ tizimni qamrab olib, janr va uslubni tez o‘zgartiradi: uzun hisobotlarni tezkor yangilanishlar va qisqa taqdimotlar almashtiradi, rasmiy ohang o‘rniga dialogik ohang ustunlashadi, terminologiyada o‘zlashma (mas.: *KPI, ROI, ESG, cash flow*) birliklar faollashadi. Brend ovozi an’anaviy uslubdan mijozga yo‘naltirilgan uslubga siljiydi. Bunday tebranishlar odatda yangi barqaror me’yor shakllanishidan avval kuzatiladi, binobarin, jarayon attraktsiya bosqichiga eltadi. Ana shu kabi omillar tufayli, sinergetik yondashuv ko‘pincha dinamik-tizimli[4] yondashuv maqomida qabul qilinadi va murakkab tizimlarni o‘rganishda muhim nazariy poydevorlardan biri deb qaraladi.

Yuqoridagi mulohazalarga tayangan holda, til tizimi ochiq, dinamik va o‘zini o‘zi boshqaruvchi ekanligi ma’lum bo‘ladi. Bu tilning ko‘p qirrali xususiyatini tasdiqlaydi va unda A.Rahimov ta’kidlaganidek, lingvosinergetika mavjudligini ko‘rsatadi[5]. Ushbu paradigma tilning o‘zini o‘zi shakllantirish qonuniyatlari, tartib va xaos orasidagi munosabatlar, shuningdek, uning rivojlanishidagi tipologik yangilanishlar va bosqichlarning almashinishlarini quyidagi tamoyillar orqali tushuntiradi:

1) *bifurkatsiya*: rivojlanishning ikki yo‘nalishga ajralishi;

2) *polifurkatsiya*: rivojlanishning bir nechta yo‘nalishlarga tarqalishi;


3) *attraksiya*: tizimni barqaror holatga yetkazadigan kuch;

4) *fluktuatsiya*: barqaror qoidadan chetga chiqish yoki og‘ish.

Demak, tilning rivojlanishi chiziqli emas, balki turli xil variantlar va beqarorlik elementlariga ega bo‘lgan chiziqsiz jarayondir.

Mazkur nazariyalar biznes diskursini sinergetik hamda funksional-lingvistik asosda chuqur tahlil qilishni va zamonaviy lingvistik paradigmalar bilan uyg‘unlashtirishni taqozo etadi. Natijada biznes muloqotining samaradorligi va dinamikasi haqida to‘liqroq tasavvur shakllanadi. E’tiborga molik jihat shuki, amaldagi yondashuvlar asosan ingliz tilidagi biznes diskurslarga qaratilgan. Ayni paytda o‘zbek tilidagi biznes muloqotlarning lingvosinergetik xususiyatlari yetarli darajada o‘rganilmagan. Zero, bu holat keng qamrovli tadqiqotlar olib borish zaruratini ko‘rsatadi.

Shunga ko‘ra, biznes muloqotida qo‘llanadigan lingvistik vositalarning interaktiv xususiyatlarini aniqlash hamda ularning kommunikativ jarayondagi rolini tahlil etish dolzarb vazifadir. Biznes diskursining lingvosinergetik tadqiqi quyidagi jihatlarni qamrab oladi (1-rasmga qarang):



2.2-rasm. **Biznes diskursining lingvosinergetik xususiyatlari tarkibi**

Yuqoridagi chizma diskursning dinamik xususiyatlari, energiya taqsimoti, sinergetik harakatlar hamda o‘zini o‘zi tashkil etish jarayonlarining kommunikativ strategiyalar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu elementlar lingvistik va pragmatic nuqtai nazardan uzviy bog‘langan bo‘lib, har biri alohida ilmiy ahamiyatga ega.

Chizmada ko‘rsatilgan konseptlar orqali muloqot jarayonidagi energiya almashinuvi va struktura shakllanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish imkoniyati

[1] “Fluctuation”. Online Etymology Dictionary, https://www.etymonline.com/word/fluctuation.

[2] Капица С.П., Курдюмов С.П., Малинецкий Г.Г. Синергетика и прогнозы будущего. – М.: Эдиториал УРСС, 2003. – С.24.

[3] Раҳимов А.У. Фузия лисоний типини квантитатив ва синергетик ёндашув асосида таҳқиқ этиш (ўзбек тили мисолида): Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Тошкент, 2009. – Б.9.

[4] Моташкова С.В. Лингвосинергетика: в поисках универсального языка коммуникации // Вестник Воронежского государственного университета. Серия: Лингвистика и межкультурная коммуникация. – 2015. – № 4. – С.11-16.

[5] Раҳимов А.У. Фузия лисоний типини квантитатив ва синергетик ёндашув асосида таҳқиқ этиш (ўзбек тили мисолида): Автореф. дисс. … канд. филол. наук. – Тошкент, 2009. – Б.10.

mavjud. Quyida bu jihatlar izchil tarzda bayon etiladi:

Diskursning dinamik xususiyatlari biznes muloqotida til birliklarining o‘zaro faoliyatini aks ettiradi va ularning pragmatik hamda funksional jihatlarini namoyish etadi. Birinchidan, vaqt kontekstida o‘zgarishlar tahlil etiladi: turli davrlarga oid biznes matnlar taqqoslanib, dominant leksik-semantik birliklarning oshishi yoki yo‘qolishi aniqlanadi. Ikkinchidan, attraktorlar aniqlanadi: muntazam takrorlanuvchi metafora, shior va ideologik birliklar diskursni boshqaruvchi asosiy omil sifatida tan olinadi. Uchinchidan, fikr-mulohaza mexanizmlari tahlil qilinadi: auditoriya javoblarining (aksiya qiymatlari, iste’molchi ballari, ijtimoiy tarmoqlardagi izohlar) biznes kommunikatsiyasiga ta’siri o‘rganiladi. To‘rtinchidan, interdiskursiv dinamikani o‘rganish amalga oshiriladi: biznes diskursi siyosiy, ekologik yoki madaniy diskurslar bilan o‘zaro bog‘lanib, natijada yangi shakllar paydo bo‘lishi aniqlanadi. Mazkur jarayon diskursning o‘sishi va kontekstga moslashishi bilan bevosita aloqador. Masalan, ingliz tilida nashr qilinadigan Britaniyaning «*The Business Magazine*» (2-son) jurnalida *Sam Pither* tomonidan chop etilgan «*What is the Metaverse?*» maqolasida biznes diskursining dinamik xususiyatlari quyidagicha aks ettirilgan:

Currently, the two most popular environments are meetings and retail. Imagine a Zoom meeting, but instead of interacting through a tiny window, you sit and have a conversation in a virtual space, represented by an avatar. This could, in turn, bring back the corridor conversation – the extra layer of social interaction which is arguably missed out when video calling.

(Sam Pither. «What is the Metaverse?»)

Metaverse (virtual olam) biznes muloqotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda va vaqt bo‘yicha dinamik tahlilda yangi lingvistik birliklarning biznes diskursga kirib kelishiga va dominant semantik birlik bo‘lishiga zamin yaratmoqda. Masalan, «*corridor conversation*» (yo‘lakdagi suhbatlar) atamasi tartibga soluvchi markaz rolini bajaradi. Bundan tashqari, virtual muhitda mazkur birlik norasmiy biznes muloqot shaklini ifodalamoqda. Bu holat interdiskursiv dinamikani ham o‘zida namoyon etmoqda.

Mazkur yo‘nalish biznes diskursining moslashuvchanligini ko‘rsatadi. Videoqo‘ng‘iroqlar muloqot zaruratini to‘liq qondira olmagan paytlarda, virtual olam bu bo‘shliqni to‘ldirish imkonini taqdim etadi. Natijada, metaverse an’anaviy biznes muhokamasiga yangi komponentlar kiritadi va uning dinamik o‘sishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Demak, lingvosinergetik yondashuv biznes diskursini tizimli o‘rganish, nutq strategiyalarini takomillashtirish hamda diskurs dinamikasini chuqur anglash uchun ilmiy asoslangan metodologik platforma beradi. Zero bu yondashuv biznes kommunikatsiyasining lingvistik va pragmatik jihatlarini kompleks tahlil qilishga yo‘l ochadi.

Rezyume: Maqola biznes diskursini sinergetik yondashuvda talqin etadi, zero til ochiq va dinamik tizim bo‘lib, o‘zini o‘zi tashkil etish qonuniyatlariga tayangan holda tahlil qilinadi. Lingvosinergetik yondashuv mikro darajadagi birliklar hamda makro darajadagi janr va ijtimoiy kontekstni birgalikda ochib beradi. Holbuki bifurkatsiya, polifurkatsiya, attraksiya va fluktuatsiya biznes muloqotidagi burilishlar hamda yangi me’yorlarning paydo bo‘lishini ko‘rsatadi. Vaholanki raqamli o‘zgarishlar ta’sirida uslub interaktivlashadi, o‘zlashma terminlar faollashadi. Binobarin, o‘zbek tilidagi biznes diskurs uchun konseptual chizma va amaliy tahlil mezonlari taklif etiladi.

Resume: The article interprets business discourse through a synergetic approach, arguing that language is an open, dynamic system analyzed with reference to the laws of self-organization. The linguosynergetic approach jointly reveals micro-level units and macro-level genre and social context. It shows how bifurcation, polyfurcation, attraction and fluctuation mark turning points in business communication and the emergence of new norms. Under digital change, styles become more interactive and borrowed terms gain prominence. Accordingly, a conceptual scheme and practical analytical criteria are proposed for Uzbek-language business discourse.

Резюме: В статье бизнес-дискурс интерпретируется в синергетическом подходе, ибо язык рассматривается как открытая и динамичная система и анализируется с опорой на законы самоорганизации. Лингвосинергетический подход совместно раскрывает микроуровневые единицы и жанр с социальным контекстом на макроуровне. При этом бифуркация, полифуркация, аттракция и флуктуация показывают поворотные моменты деловой коммуникации и возникновение новых норм. Под воздействием цифровых изменений стиль становится более интерактивным, активизируются заимствованные термины. Соответственно предлагаются концептуальная схема и практические аналитические критерии для узбекоязычного бизнес-дискурса.